

---

"Xo'jaqishloq" MFY yoshlar yetakchisi davlat mukofoti bilan taqdirlandi Qo'shtepa tumanidagi "Xo'jaqishloq" mahallasi yoshlar yetakchisi Hamdam Maxmudov O'zbekiston Respublikasining faxriy "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Mazkur mukofot Hamdam Maxmudovning yoshlar orasida olib borgan jonbozlik faoliyati, innovasion tashabbuslari va mahalladagi ijtimoiy muhitni yaxshilashga qo'shgan ulkan hissasi uchun berildi. U o'z faoliyati davomida ko'plab yoshlarni ma'naviy va madaniy rivojlanishga undab, ularning orzu va intilishlarini qo'llab-quvvatlashda alohida o'rnak bo'lib kelmoqda.

Biz tumandagi barcha yoshlarga ushbu muvaffaqiyatdan ilhom olishni va yangi marralar sari intilishni tilab qolamiz! Hamdam Maxmudovning kelgusi faoliyatida ham muvaffaqiyatlar yor bo'lsin!

Qo'shtepa tumani hokimligi.

2024-12-25 09:07:20